2026-yil noyabr

Hurmatli oilalar,

Nyu-York shahar Davlat maktablari (NYCPS) tizimida biz har bir bola maktabda o‘zini xavfsiz, qabul qilingan va qadrli his qilishga loyiq deb, ishonamiz. Bizning maktablarimiz barcha o‘quvchilar uchun, ularning immigratsiya maqomi, kelib chiqqan mamlakati yoki uyda gaplashadigan tilidan qat’i nazar, bilim olish va o‘z salohiyatini rivojlantirish maskanidir.

Sentabr oyida men barcha bolalar va oilalarni, shu jumladan immigratsiya jamoalarimizni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha o‘z majburiyatimizni baham ko‘rgan edim. Bugungi kunda immigratsiya qoidalarini ijro etish choralari ko‘plab Nyu-York aholisi uchun noaniqlik va xavotir uyg‘otishda davom etayotgan bir paytda, men ushbu majburiyatni yana bir bor tasdiqlamoqchiman: **Har bir bola bizning maktablarimizga tegishlidir va har bir oila maktab jamoamiz uchun muhimdir.**

Biz har bir oilaning o‘zini vaziyatdan xabardor, tayyor va qo‘llab-quvvatlangan his qilishni istaymiz va shu sababli ham o‘quv yili boshlanishidan oldin mahalliy bo‘lmagan huquqni muhofaza qilish organlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish bayonnomalarimizni yangiladik. Ushbu yangilanishlar kelish va ketish vaqtlari, maktabdan tashqari tadbirlar, shuningdek, darsdan keyingi hamda dam olish kunlaridagi dasturlarni qamrab oladi. Ilova qilinayoygan *Immigratsion oilalar huquqlari va resurslari bo‘yicha qo‘llanma* o‘quvchilar himoyasi, maktab xavfsizligi tartib-qoidalari, favqulodda vaziyatlarni rejalashtirish, til bo‘yicha yordam hamda mavjud huquqiy va jamoatchilik resurslari haqida qo‘shimcha ma’lumotlarni taqdim etadi. Oilalar qo‘shimcha ma’lumot olish uchun schools.nyc.gov/ProjectOpenArms veb-saytiga ham tashrif buyurishlari mumkin.

NYPCPS o‘quvchilar yoki ularning oilalarining immigratsiya maqomini so‘ramaydi va kuzatib bormaydi, shuningdek federal va shtat maxfiylik qonunlariga muvofiq o‘quvchilar haqidagi ma’lumotlarni himoya qiladi. Biz, shuningdek, immigratsiya organlariga javob berishda qat’iy bayonnomalarga amal qilamiz.

Muhojir oilalarimiz oldidagi majburiyatimiz aniq: Har bir bola mamnuniyat bilan qabul qilinadi, har bir oilaga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘linadi va har bir o‘quvchi qo‘llab-quvvatlanadi. Farzandlaringiz o‘rni bizning sinflarimizdadir. Biz ularning ta’lim olishi va farovonligini ta’minlashda siz bilan birgamiz.

Farzandingiz ta’limini bizga ishonganingiz va maktab jamoalarimizning qadrli a’zosi bo‘lganingiz uchun tashakkur bildiramiz.

Immigratsion oilalar huquqlari va resurslari bo‘yicha qo‘llanmaga
kirish uchun QR-kodni skanerlang

Hamkorlik umidi ila,

Kamar H. Samuels
Maktablar tizimi rahbari